

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### **NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDA PSIXOLOGIYA O'QUV-ILMIY MARKAZI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA- TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-iyuldagagi PQ-3151-sون qarori ijrosini ta'minlash hamda mamlakatimizda ijtimoiy sog'lom muhitni shakllantirish, yoshlar tarbiyasining ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, shaxsnинг ma'naviy kamol topishi psixologik qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash, soha mutaxassislarining psixologik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda jamiyatda psixologik bilimlarni keng targ'ib etishga doir ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida Psixologiya o'quv-ilmiy markazini (keyingi o'rinnalarda Markaz deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

mamlakatimizda ijtimoiy sog'lom muhitni shakllantirish, yoshlar tarbiyasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, shaxsnинг ma'naviy kamol topishi psixologik qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashning ilmiy-amaliy asoslarini yaratish va metodik ta'minotini ishlab chiqish;

jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni o'rganish, tahlil qilish va hal etish bo'yicha ilmiy psixologik tadqiqotlar o'tkazish hamda ularda qo'llaniladigan samarali metodlar ishlab chiqilishini ta'minlash;

psixologiyaning asosiy yutuqlarini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha bosma va elektron ilmiy jurnallar ta'sis etish, ilmiy loyihalarni amalga oshirish, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarini tashkil etish;

ijtimoiy talab va taklif asosida davlat va nodavlat notijorat tashkilotlaridagi oliy ma'lumotli mutaxassislarining bazaviy ma'lumotiga muvofiq psixologiya mutaxassisligi bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, turli soha xodimlarining psixologik bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;

davlat buyurtmasi hamda ijtimoiy talablar asosida jamiyat hayotidagi shaxs psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan maxsus va tizimli muammolar bo'yicha amaliy psixologik tadqiqotlar o'tkazib, ularning yechimi bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda boshqa davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining buyurtmalari asosida psixologik tadqiqotlar o'tkazish;

jamiyat hayotidagi turli favqulodda vaziyatlar vaqtida aholiga psixologik yordam ko'rsatish va fuqarolarni psixologik tushkunlikdan chiqarish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etish;

aholining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash borasidagi muhim omillarni o'rganish va natijalarini bo'yicha tegishli tashkilotlarga axborot kiritib borish;

jamiyatda, ayniqsa, yoshlar o'rtasida psixologik bilimlarni keng targ'ib etish.

3. Quyidagilar:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Psixologiya o'quv-ilmiy markazi tuzilmasi **1-olvaga** muvofiq tasdiqlansin.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektoriga, zarur hollarda, Markazning tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiyl shtatlar soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bir oy muddatda:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi nizomini tasdiqlasin;

Markazga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda uning faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlari rejasini tasdiqlasin;

Markazni yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan xorijiy ta’lim muassasalarida ta’lim olgan hamda psixologiya sohasida katta tajribaga ega bo‘lgan ilmiy-pedagog kadrlar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi:

bir oy muddatda Markazda 2017-yil noyabr-dekabr oylarida malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o‘tishi tavsiya etilayotgan psixolog xodimlar ro‘yxatini shakllantirib, Markazga taqdim etilishini ta’minasinlar;

2018 — 2021-yillar uchun psixolog xodimlarning shartnama asosida malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha har bir vazirlik va idora kesimidagi manzilli rejalarini tasdiqlasinlar.

6. Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

Markazning joriy ta’minoti,unga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarishga doir tadbirlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga oliy ta’lim muassasalarini saqlash xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar;

O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlardan natijalari bo‘yicha ajratiladigan grantlar;

xo‘jalik faoliyatidan va shartnama asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va maqsadli badallari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. Belgilansinki:

Markaz yuridik shaxs hisoblanmaydi;

Markazning ilmiy va rahbar xodimlari lavozim maoshlari respublika ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan lavozim maoshlari miqdoriga tenglashtiriladi;

Markazda psixolog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shartnama asosida, malaka oshirish va qayta tayyorlashga yuborgan buyurtmachi tashkilotning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Markaz faoliyati kengayib borishi va chuqur ixtisoslashgan yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy ishlar amalga oshirilishi uchun Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 19-mavze, 4/1-uy manzilida joylashgan Chilonzor kommunal xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejining bino va inshootlarini tegishli hududlari bilan birga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga operativ boshqarish huquqi asosida bepul berish to‘g‘risidagi taklifiга rozilik berilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, Chilonzor communal xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejining o‘quvchilari o‘qishni bitirgunlariga qadar mazkur kollej binosida o‘quv jarayonini davom ettiradilar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asoslangan hisob-kitoblari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturining 2019-yilga va keyingi yillarga mo‘ljallangan parametrlarini shakllantirishda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti obyektlarini rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan mablag‘lar ajratilishini nazarda tutsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalim maxsus ta’lim vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda Markazni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash maqsadida Oliy va o‘rtalim vazirligiga 2017-yilda oliy ta’lim muassasalarini saqlash xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti xarajatlar smetasiga o‘zgartirishlar kirtsin.

11. Vazirlar Mahkamasining “Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 13-maydagi 153-son qaroriga 1-ilova **matni 2- ilovaga** muvofiq tahrirda bayon etilsin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rtalim maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga va Vazirlar Mahkamasining Ta’lim, ilm-fan va yoshlardagi siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

### **O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 29-sentabr,  
775-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-sentabrdagi 775-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi**

#### **TUZILMASI**



Markaz xodimlarining cheklangan umumiy soni 18 nafar, shu jumladan boshqaruva xodimlari soni 3 nafar, ilmiy xodimlar soni 11 nafar.

Ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish uchun mutaxassislar va olimlar shartnoma asosida jabb etilishi mumkin.

\* Universitetning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan saqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-sentabrdagi 775-son qaroriga  
2-ILOVA

### **“Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining**

#### **TUZILMASI**



Universitet (fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo‘linmalar) xodimlarining cheklangan umumiy soni oliy ta’lim muassasalarini uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi”.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2017-y., 09/17/775/0051)*